



KHOSSEIN VOYZ KOSHIFI'S POLITICAL VIEWS IN PUBLIC ADMINISTRATION

Nuriddin N. Rakhmatov

lecturer, researcher

National University of Uzbekistan

Bukhara State Medical Institute

Bukhara, Uzbekistan

E-mail: rakhmatov.nuriddin.83@gmail.com

ABOUT ARTICLE

Key words: Development strategy, public administration, administrative reforms, power, leader, politics, officials, globalization and information.

Received: 26.05.23

Accepted: 28.05.23

Published: 30.05.23

Abstract: In this article, an attempt is made to highlight the social and political views of Hossein Voiz Koshifi. The social and political views of Koshifi, who was a famous orator and a scholar of high morals in his time, who gave perfect advice and recommendations in his sermons, are also important for today's management and can serve as a program for leaders. The position and role of the leader, the norms of his policy are reflected in Koshifi's views, and are analyzed in the article in accordance with today's times. Some of Koshifi's views on the reforms in administrative management in new Uzbekistan and ensuring their effectiveness in practice are considered in terms of their relevance to the requirements of the time.

HUSAYN VOYZ KOSHIFIYNING DAVLAT BOSHQARUVIDA SIYOSIY QARASHLARI

Nuriddin N. Raxmatov

o'qituvchi, tadqiqotchi

O'zbekiston Milliy Universiteti

Buxoro davlat tibbiyot instituti

Buxoro, O'zbekiston

E-mail: rakhmatov.nuriddin.83@gmail.com

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Taraqqiyot strategiyasi, davlat boshqaruvi, ma'muriy islohotlar, hokimiyat, rahbar, siyosat, mulozimlar, globallashuv va axborot.

Annotatsiya: Mazkur maqolada Husayn Voiz Koshifiyning ijtimoiy – siyosiy qarashlari yoritishga harakat qilingan. O'z davrida mashhur notiq va yuksak axloq bilimdoni,

va'zlarida komil nasixat va tavsiyalarni bergan Koshifiyning ijtimoiy – siyosiy qarashlari bugungi davr boshqaruvi uchun ham muhim bo'lib, rahbar kadrlarga dasturul amal bo'lib xizmat qilishi mumkin. Rahbarning mavqeい va roli, uning siyosati me'yorlari Koshifiyning qarashlarida aks etilgan bo'lib, maqolada bugungi zamon bilan mos ravishda tahlil qilinadi. Yangi O'zbekistonda ma'muriy boshqaruvda olib borilayotgan islohotlar va ularning amaliyotda samaradorligini ta'minlashda Koshifiyning ayrim qarashlari zamon talablariga mosligi jihatidan ko'rib chiqiladi.

ПОЛИТИЧЕСКИЕ ВЗГЛЯДЫ ХОССЕЙНА ВОЙЗА КОШИФИ В ОБЛАСТИ ГОСУДАРСТВЕННОГО УПРАВЛЕНИЯ

Нуридин Н. Рахматов

преподаватель, исследователь

Национальный университет Узбекистана

Бухарский государственный медицинский институт

Бухара, Узбекистан

E-mail: rakhmatov.nuriddin.83@gmail.com

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Стратегия развития, государственное управление, административные реформы, власть, лидер, политика, чиновники, глобализация и информация.

Аннотация: В данной статье предпринята попытка осветить общественно-политические взгляды Хоссейна Войза Кошифи. Социально-политические взгляды Кошифи, известного в свое время оратора и ученого высокой нравственности, давшего в своих проповедях совершенные советы и рекомендации, также важны для современного менеджмента и могут служить программой для руководителей. Позиция и роль вождя, нормы его политики отражены во взглядах Кошифи и анализируются в статье в соответствии с сегодняшним временем. Рассмотрены некоторые взгляды Кошифи на реформы административного управления в новом Узбекистане и обеспечение их эффективности на практике с точки зрения их соответствия требованиям времени.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi 60-son farmoni davlat boshqaruvi tizimini

takomillashtirishga qaratilgan yangi vazifalarni belgilab berdi. Mahallalarda yangi institut sifatida joriy qilingan tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha tuman (shahar) hokimi yordamchilari hamda yoshlar yetakchilari faoliyati samarali yo'lga qo'yildi. Shu bilan birga, mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatining institutsional asoslarini zamon talablariga moslashtirish, ixcham, professional,adolatli, yuqori natijadorlikka xizmat qiladigan davlat boshqaruvi tizimini joriy qilish, davlat boshqaruvi tizimida ma'muriy boshqaruvni ixchamlashtirish va ish jarayonlarini maqbullashtirish, Oliy Majlis palatalari va siyosiy partiyalar rolini yanada oshirish, «Elektron hukumat» tizimini rivojlantirish, elektron davlat xizmatlarining ulushini ellik to'rt foizdan yuz foizga yetkazish hamda byurokratiyani bartaraf etish kabi vazifalar belgilandi.

ASOSIY QISM

Shu bilan birga, Yangi O'zbekiston ma'muriy islohotlari doirasida mamlakatimizda natijadorlikka yo'naltirilgan ixcham va professional davlat boshqaruvi tizimini yaratish bo'yicha chora-tadbirlarning o'z vaqtida va samarali amalga oshirilishini ta'minlash, shuningdek, respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini yangilangan talablar va tamoyillar asosida tashkil etish maqsadi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 21 dekabrdagi "Yangi O'zbekiston ma'muriy islohotlari doirasida respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-447-son qarori va Yangi O'zbekiston sharoitida zamonaviy talablarga javob beradigan ixcham davlat boshqaruvi tizimini shakllantirish, qaror qabul qilish va masalani ko'rib chiqish jarayonlarini soddallashtirish orqali davlat organlari rahbarlarining mas'uliyatini oshirish hamda ular faoliyatini natijadorlikka yo'naltirish, shuningdek, ma'muriy islohotlari dasturi ijrosini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 21 dekabrdagi "Yangi O'zbekiston ma'muriy islohotlarini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-269-son Farmoni qabul qilindi. Bugungi kunda Yangi O'zbekiston ma'muriy islohotlarining professional boshqaruv tamoyillariga asoslangan va samaradorlikka yo'naltirilgan, ijro etuvchi hokimiyat organlarining o'z vazifalarini bajaruvchi yaxlit bir tizimini shakllantirish eng asosiy vazifalardan biridir. Mazkur professional tizimda o'z vazifasini, maqsadini yaxshi biladigan va vijdonan bajaradigan, zamonaviy bilim va ma'naviy-axloqiy tarbiyalangan kadr va mutaxassislarga ehtiyoj kattadir.

Bunday kadr va mutaxassislarni tarbiyalashda mamlakatimizda ajdodlarimizning eng ilg'or g'oyalari, fikrlariga tayanish juda katta samara berishini ta'kidlab o'tish joiz. Ajdodlarimizning bu tarixiy tajribasidan foydalanish bugungi kunda ham biz uchun muhim. Ushbu yo'nalishda temuriylar davrining mashhur voizi va axloq sohiblaridan biri Husayn Voiz Koshifiy o'z davrida davlat boshqaruvi va siyosat yuritish borasidagi qarashlari bilan mashhur bo'lgan. Ayniqsa,

uning “Axloqi Muhsiniy”, “Anvori Suxayliy” va “Risolai Xotamiya” asarlarida davlat va hokimiyat, diniy va dunyoviy hokimiyat birligi, rahbarlarni tarbiyalash va rahbarlik lavozimlarida ishlaganlarni rioya etishi kerak bo‘lgan vazifalari to‘g‘risidagi bildirgan fikrlari o‘z ahamiyati bilan qimmatlidir. Bu asarlardan Xuroson mamlakatida, Hirotda va boshqa shaharlardagi madrasalarda talabalar uchun darslik sifatida foydalanilgan. Mutafakkir bu asarlarida o‘zining hayotdan olgan saboqlari, tajribalari asosida xalqchillik, insonparvarlik, ijtimoiy hayot,adolat, halollik, sofdillik, poklik, to‘g‘rilik, rostgo‘ylik haqidagi fikrlarini o‘qimishli, qiziqarli hikoyatlar, rivoyatlar yordamida bayon etadi. Bu asarlar Koshifiy tili bilan aytganda “hikmati amaliy” asosida yozilganligidan bugungi kunda ham juda katta tarbiyaviy ahamiyatga egadir.

Husayn Voiz Koshifiy davlat hokimiyatini o‘rnatish va siyosat barqarorligini ta’minlash dono siyosatsiz amalda ta’minlab bo‘lmasligini aytib o‘tadi. U dastlab siyosat tushunchasiga etibor qaratdi va uni izohladи. “Siyosatning asl ma’nosini kishini g‘amga solishdir”. Aynan lug‘at ma’nosini esa, “mamlakatni qo‘lda tutish va har kimni o‘ziga munosib o‘ringa qo‘yishdir” [1, B.261]. Bunda qo‘rquv, majburlash va mamlakatni siyosat boshqaruvida tutish asosiy maqsad bo‘lib, xodimlarning iqtidor va iste’dodi hamda say-harakati asosida ularni joy-joyiga qo‘yish ham siyosatning asoslaridan biridir.

Koshifiy siyosat yo‘nalishida shaxsning ahloqiga katta e’tibor qaratadi va siyosatni ikki xil ko‘rinishga ajratadi, biri o‘z nafsiga nisbatan siyosat qilish, ikkinchisi o‘zga kishiga nisbatan siyosat qilish. Koshifiy o‘z nafsiga nisbatan bo‘lgan siyosatni yomon sifatlarni o‘zidan yo‘qotish orqali, yaxshi xulqlarni egallash kerakligini aytadi. Ya’ni, odamzodning faqat yaxshi xushxulqli bo‘lishi kerakligini, o‘zining foydali harakatlari bilan ham o‘ziga ham o‘zgalarga foyda keltirishi kerakligini aytib o‘tadi.

Boshqalarga nisbatan qilinadigan siyosatni esa, ikkiga bo‘ladi. Ya’ni o‘z ayonlari va yaqinlari siyosati bo‘lsa, ikkinchisi, xalqqa nisbatan olib boriladigan siyosatga ajratadi. Podshohning vazirlari, mulozimlari va xodimlari hamda shahzodalariga qiladigan siyosati va talablari, ularning tarbiyasi va ularga munosabat Koshifiyning Husayn Boyqaroning o‘g‘li Abulmuhsin mirzoga bag‘ishlab yozilgan “Axloqi Muhsiniy” asari 40-bobida alohida aytib o‘tiladi. Podshohning xalqqa nisbatan qiladigan siyosatiga mamlakatdagи badfe’l yomon odamlarni hamisha qo‘rquvda tutishi, yaxshilarni esa doimo umidli tarbiyalashi kerakligini aytib o‘tadi. Shundan ham bilishimiz mumkinki, davlat hokimiyati xalqning tinch va osoyishta yashashi, manfaatlarini ro‘yobga chiqarishida yaratilgan yaxshi shart-sharoitlardan foydalanib, ta’lim va tarbiya olishi kerakligi, jamiyatdagi yomonliklarga esa, davlat o‘zining qonunlari va jazolari bilan ularni qattiq nazorat va jazoga tortib turishi lozimdir.

Koshifiy siyosatning zaruratiga ham e'tibor qaratib, hakimlarning hikmatlaridan iqtibos ketiradi. Jumladan, "Agar zabit etish va siyosat qilish bo'lmasa, barcha ishlar izdan chiqadi, agar adab berish va jazolash rasmi yo'q bo'lsa, muhim ishlar vayronlikka yuz qo'yadi" [2, B.156]. Demak, siyosat davlat hokimiyati uchun juda zarur bo'lib, mamlakatda odamlar orasidagi tartib va tarbiyaning, o'zaro munosabatlarning barqarorligiga sabab bo'lishi, aksincha bo'lsa, boshboshdoqlik va zulm-sitamga sabab bo'lishini ta'kidlab o'tadi.

Koshifiy siyosatni davlat va mulkning hamda millatning quvvati sifatida e'tirof etib, bu bilan birga uning barqarorligini ta'minlashda adolatga rioya etishga chaqiradi. Bunda din va shariatga tayanish muhim ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlaydi.

Bugungi kunda mamlakatimizda dunyoviy davlat deb e'lon qilingan ekan, siyosat sahnasida qonun ustivorligiga tayangan va ishlaydigan davlat tizimining tashkil topganligini va xalq manfaatlariiga xizmat qilishda adolat va insonparvarlik prinsiplariga tayanish katta ahamiyatga egadir. Adolatni tushunishda mutafakkirning qarashlari Arastu qarashlariga yaqin. Aristotel adolatni umuminsoniy rahm-shafqat deb hisoblagan. Husayn Voiz Koshifiy esa odamlar va jamiyat o'rtasida tenglik va muvozanat mavjudligini adolatdan deb biladi.[1, B.164].

Hakimlar so'zlaridan iqtibos keltirar ekan, Koshifiy davlatni bir daraxtga siyosatni esa suvg'a o'xshatadi. Bunda podshohlarning davlat niholining ildizini siyosat suvi bilan sug'orishlari kerakligi, shundagina mamlakatda tinchlik va omonlik mevasi hosil berishini ta'kidlab o'tadi.

Mutafakkir siyosatga loyiq insonlar qanday kishilar bo'lishi kerakligiga ham ahamiyat beradi. Uning aytishicha, "Odamlardan hech kishi siyosatga loyiq emas, balki siyosatni darrandalar va gazandalarga qilish kerak". Ya'ni yomon va yovuz kishilar darranda va gazandadan ham battardir. Shu uchun faqat ular loyiqdir. [2, B.160]. Shuningdek, bunday odamlarga nisbatan siyosat qilishning tartiblariga ham e'tibor beradi. Bunda ularga nisbatan ogohlantirish kerakligi, agar bu ham kor qilmasa, qo'rqtish va do'q qilish kerakligini ta'kidlaydi. Unda ham bo'lmasa, qonun-qoidalarga asosan urish va zindonga solish kerakligini aytib o'tadi. Siyosat qilishda ketma-ketlikka rioya etish, ogohlantirishdan jazolashgacha bo'lgan ma'muriy va jinoiy jazolarni qo'llash muhimligiga ishora qiladi.

Bugungi kunda globallashuv davrida dunyoning turli burchaklarida sodir bo'layotgan xunrezliklar, urushlar, kelishmovchiliklar, boylik talashish va g'oyaviy-informatsion kurashlar zamirida bir mamlakat tomonidan ikkinchi bir mamlakatga jismoniy yoki g'oyaviy hujum qilish, turli fitnalarni keltirib chiqarish, notinchlik va buzg'unchilik bilan birga ijtimoiy-madaniy hayotni izdan chiqarishga urinayotgan yovuz niyatli kuchlar juda ko'pdir. Ular turli siyosiy yoki diniy ekstremistik g'oyalarni targ'ibot qilib, mamlakatlar aholisi va ayniqlsa, kelajak avlod

bo‘lmish yoshlarning dunyoqarashiga salbiy ta’sir etib kelmoqdalar. O‘z davrida ana shunga o‘xhash voqealarga Husayn Voiz Koshify siyosatni bunday fitnalarni bartaraf etish vositasi sifatida tilga oladi. Jumladan uning aytishicha, “Fitna qiluvchi odamlar g‘avg‘o va to‘polon qiluvchilar hisoblanadi. Agar ular siyosat olovining tezligini ko‘rsalar, o‘sha onda xilvatga qochadilar, agar siyosatda salgina sustlik baydo bo‘lsa, minglab fitnani paydo qiladilar va har tomonda notinchlikni yuzaga keltiradilar” [3, B.264-265].

XULOSA

Husayn Voiz Koshifiyning davlat hokimiyatining siyosati, boshqaruv, siyosatning foydalari, uning sub’ektlari va siyosat yuritish tartiblari borasidagi fikrlari bugungi demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etayotgan O‘zbekistonning ichki siyosati boshqaruv tizimida va tashqi ham buzg‘unchi axborotlarga qarshi kurashishda ahamiyatli tomonlari bilan bog‘liqli jihatlari bor. Ayniqsa, davlat tizimida boshqaruv kadrlarini tayyorlash va ularning davlat hokimiyatining strukturalarini faol ishlarini yo‘lga qo‘yishda, Koshifiyning siyosat borasidagi g‘oyalarini o‘rganish va amaliyotda ma‘qul tomonlarini qo‘llash o‘zining dolzarbliji bilan ahamiyatlidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Husayn Voiz Koshify Futuvvatnomai sultoniy; Axloqiy Muhsiniy / nashrga tayyorlovchilar: M.Aminov, F.Hasanov. – T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2011. – 376 bet.
2. Husayn Voiz Koshify “Axloqi Muhsiniy”, “Futuvvatnomai sultoniy”, “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 1994 yil.
3. Husayn Voiz Koshify Futuvvatnomai sultoniy, Axloqiy Muhsiniy, 374 bet. https://n.ziyouz.com/books/axloq_va_odob/Husayn%20Voiz%20Koshify.%20Axloqi%20muhsiniy.pdf
4. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. T. 1. - Toshkent: O‘zbekiston. 2017.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma’ruzasi, 2017 yil 14 yanvar. –Toshkent: “O‘zbekiston”, 2017, 104 b
6. Mahmudov. R.J. Husayn Voiz Koshify/ Ma’naviyat yulduzlari. T. 2001y. 241-245 betlar.
7. Ashurova M.S. Husayn Voiz Koshify asarlaridagi axloqiy tarbiya masalalarining yoritilishi. / <https://openconference.us/index.php/innoscience/article/view/745/683>